



## **“TBC Bank” ATB “TBC Stars” dasturining QOIDA VA SHARTLARI**

### **1. ATAMALAR VA TA'RIFLAR**

<b>Bank</b>	“TBC Bank” aksiyadorlik tijorat banki (keyingi o‘rinlarda “Bank” deb ataladi).
<b>Boshqaruv</b>	“TBC Bank” aksiyadorlik tijorat banki Boshqaruvi
<b>TBC Stars</b>	TBC UZ ilovada dasturning tijorat nomi (keyingi o‘rinlarda “Dastur” deb ataladi).
<b>Bank mijozi</b>	Bank xizmatlaridan foydalanuvchi jismoniy shaxs.
<b>Missiya</b>	Yulduzlarga ega bo‘lish uchun Bank Mijozlari tomonidan amalga oshirilishi kerak bo‘lgan bank operatsiyalari bilan bog‘liq xatti-harakatlar.
<b>Kunning missiyasi</b>	Bank tomonidan belgilangan maxsus cheklangan vaqtda yulduzlarni olish uchun Bank Mijozlari tomonidan amalga oshirilishi kerak bo‘lgan bank operatsiyalari bilan bog‘liq xatti-harakatlar, shuningdek, buning uchun oddiy missiyalarga nisbatan ko‘proq yulduzlar beriladi. Kunning missiyalari Bank tomonidan Bank bilan aloqa kanallari orqali ma’lum qilinadi.
<b>Yulduzlar</b>	Mijoz faolligining shartli o‘lchov birligi - bu ballar bo‘lib, ular yordamida Bank Mijozlari o‘yinda o‘zaro xatti-harakatlarni bajarishi va/yoki Peshqadamlar ro‘yxatida ma’lum joylarga taqsimlanishi mumkin.
<b>Dastur amal qilish muddati</b>	Ushbu Qoidalar Ilovasining 1-bandida ko‘rsatilgan Dasturning amal qilish davri
<b>Sovrinlar jamg‘armasi</b>	G‘oliblarga taqdim etiladigan sovrinlar
<b>Dastur Ishtirokchisi</b>	“TBC Stars” Dasturining Qoidalarini qabul qilgan Bank mijozi.
<b>Vaucher</b>	Bank Mijozlari uchun chegirmalar va qulay shartlarni taklif qiluvchi Bank hamkorlarining taklifi. Takliflar ro‘yxati TBC UZ ilovasida TBC Stars bo‘limida keltirilgan.

### **2. UMUMIY QOIDALAR**

- 2.1. “TBC Stars” dasturining mazkur Qoidalari va Shartlari (keyingi o‘rinlarda “Qoidalar” deb ataladi) Bank Mijozlarining “TBC Stars” dasturida ishtirok etish shartlari va tartibini belgilaydi.
- 2.2. Ushbu Qoidalar O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 367-moddasi va 369-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq ommaviy oferta hisoblanadi. Mazkur Qoidalar Bankning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan – [www.tbcbank.uz](http://www.tbcbank.uz).
- 2.3. “TBC Stars”da Dasturining har bir amal qilish muddatida sovrinlarni Bankning eng faol mijozlari o‘rtasida taqsimlash nazarda tutilgan.
- 2.4. Dasturning o‘tkazish joyi: O‘zbekiston Respublikasi hududi.
- 2.5. Dastur uning amal qilish muddati davomida amal qiladi va muddati tugaganidan so‘ng avtomat ravishda yakunlanadi.
- 2.6. Ushbu Dastur lotereya yoki boshqa xavfga asoslangan o‘yin emas, unda Dastur ishtirokchilari Dasturda ishtirok etish bilan bog‘liq mulkiy xavflarga ega emaslar. Dasturni o‘tkazish jarayoni ishtirokchilar tomonidan biron-bir to‘lovni to‘lash bilan bog‘liq emas.
- 2.7. Ushbu Qoidalarni qabul qilgan holda, Bank Mijozlari ushbu Dastur shartlariga rozi bo‘ladi.



### **3. ISHTIROKCHILAR VA DASTURDA ISHTIROK ETISH SHARTLARI**

- 3.1. TBC UZ mobil ilovasini o'rnatib, undan foydalanib kelayotgan Bankning identifikatsiyalangan barcha mijozlari Dastur ishtirokchisi bo'lishi mumkin.
- 3.2. Dasturda ishtirok etish uchun so'rov berish talab qilinmaydi. Ushbu Qoidalar TBC UZ mobil ilovasida ro'yxatdan o'tish jarayonida Bankning identifikatsiyalangan Mijozlari tomonidan qabul qilinadi va u avtomat ravishda uning ishtirokchisiga aylanadi.
- 3.3. Qoidalar kuchga kirgungacha qadar ro'yxatdan o'tgan identifikatsiyalangan Bankning Mijozlari TBC UZ ilovasidan foydalanishni davom ettirish orqali ushbu Dastur ishtirokchisiga aylanadilar va bu haqida ilovada SMS va/yoki Push-xabarnoma orqali ogohlantiriladilar.

### **4. DASTURNI AMALGA OSHIRISH TARTIBI VA SOVRINLARNI TAQSIMLASH TARTIB-TAOMILI**

- 4.1. Dastur ishtirokchilari turli missiyalarni bajarish orqali yulduzlarni to'playdilar. Missiyalar ro'yxati, ularni bajarish shartlari va qo'lga kiritilgan yulduzlar uchun sovrinlar ushbu ofertaning ilovasida keltirilgan.
- 4.2. To'plagan yulduzlarni ekvivalent sovrinlarga almashtirish mumkin. Sovrinlar toifalari quyidagilardan iborat: pul mukofoti, jismoniy sovrinlar, vaucherlar va promokodlar. To'plagan yulduzlar uchun sovrinlarni almashtirish qiymati va mavjud sovrinlar ro'yxati ushbu ofertaning 1-ilovasida keltirilgan.
- 4.3. Ishtirokchi tomonidan joriy Dastur muddati uchun to'plagan yulduzlarning joriy sonini TBC UZ ilovasining asosiy ekranida, shuningdek, TBC UZ ilovasining TBC Stars bo'limida ko'rish mumkin.
- 4.4. Dastur muddati davomida to'plagan yulduzlar Dastur muddati oxirida bekor qilinmaydi.

### **5. SOVRINLARNI OLISH TARTIBI VA MUDDATLARI**

- 5.1. Bank har bir g'olib Ishtirokchini yulduzlar olganligi yoki Sovringa almashish fakti to'g'risida SMS-xabarnoma va/yoki mobil ilovadagi Push-xabarnoma orqali, shuningdek, Bankning boshqa aloqa kanallari orqali xabardor qiladi.
- 5.2. Mukofot puli Bank Mijozining joriy karta hisobvarag'iga va/yoki virtual karta hisobvarag'iga tegishli sovringa almashtirgandan keyingi bank kunidan kechiktirmay o'tkaziladi.
- 5.3. Mukofot pul mablag'larini Bank Mijozlari O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida taqiqlanmagan istalgan maqsadlar uchun sarflashi mumkin.
- 5.4. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 369-moddasi, ikkinchi qism, 14-bandiga muvofiq olingan mukofot pul mablag'lar soliqqa tortilmaydi.
- 5.5. Naqd bo'lmagan sovrinlar Ishtirokchiga tegishli sovringa almashtirgan kundan boshlab 30 (o'ttiz) ish kuni ichida o'tkaziladi.

### **6. BOSHQA SHARTLAR**

- 6.1. Mazkur Qoidalar Bankning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan - [www.tbcbank.uz](http://www.tbcbank.uz)
- 6.2. Dastur ishtirokchilari yuqorida ko'rsatilgan veb-saytdagi (havola orqali) tegishli o'zgarishlarni tekshirish orqali Dastur shartlarining yangilanishini mustaqil ravishda kuzatib borishlari shart.
- 6.3. Bank Mijozlari TBC UZ mobil ilovasida TBC Stars "Qoidalar" bo'limida "Dasturni tark etish" tugmasini bosish orqali ushbu dasturda ishtirok etishdan bosh tortish huquqiga ega.
- 6.4. Agar Mijoz tomonidan missiyalarni bajarish vaqtida Bank shubhali tranzaksiyalar/harakatlarni aniqlasa yoki Mijoz tomonidan amaldagi qonunchilikka va Bankning har qanday shartnomalariga zid bo'lgan noqonuniy yoki firibgarlik xatti-harakatlarini amalga oshirishda gumon qilinayotgan bo'lsa, Bank Mijozga mukofotlarning biron-birini taqdim etish yoki topshirishdan bosh tortish huquqiga ega va/yoki bunday tranzaksiyalar/harakatlar uchun berilgan yulduzlarni bekor qilishga haqli.
- 6.5. Bankning uchinchi tomon hamkori tomonidan promokodlaridan foydalanish shartlari Bankning tegishli hamkori tomonidan xizmatlar ko'rsatish/tovarlarni sotish bo'yicha tegishli shartnomalar bilan tartibga solinadi, ular Hamkorlarning veb-saytlarida joylashtirilgan yoki savdo ofislarida mavjud.
- 6.6. Ushbu dastur doirasida yulduzlar almashinuvidan so'ng sovrinlarni qaytarish va/yoki almashtirishga yo'l qo'yilmaydi.



- 6.7. Dastur ishtirokchilari sovrinlar ro'yxati va tavsifi bilan yaqindan tanishishlari shart.
- 6.8. Haqiqiy sovrinlar ko'rsatilgan namunalardan biroz farq qilishi mumkin. Farqlar tafsilotlar, ranglar yoki boshqa elementlarni o'z ichiga olishi mumkin.
- 6.9. Mijoz to'g'ri mahsulotni tanlash va yulduzlarni almashishdan oldin dastur qoidalari bilan tanishish uchun javobgardir.
- 6.10. Agar g'olib aloqaga chiqmasa va/yoki g'oliblar belgilangan joyda yulduzlar almashilgan kundan boshlab 60 (oltmish) kun ichida kelmasa, ilgari taqdim etilgan ma'lumotlarga muvofiq yulduzlar va sovrinlar bekor qilingan deb hisoblanadi.

## **7. JAVOBGARLIK**

- 7.1. Dastur ishtirokchilariga sovrinni to'lash yoki topshirish bo'yicha Bankning majburiyati u Mijozning hisobvarag'idan biriga kirim qilingan vaqtda yoki naqd pulsiz ko'rinishda sovrin/promokod haqiqatan topshirilgan vaqtda bajarilgan hisoblanadi.
- 7.2. Ushbu Qoidalarning amal qilish muddati mobaynida tizimlarda ro'y bergan texnik muammolar, nosozliklar, xatolar tufayli yuzaga kelgan ushbu Qoidalar bo'yicha majburiyatlarni bajarmaslik holatlari uchun Bank javobgar emas.
- 7.3. 7.2-bandda ko'rsatilgan holatlar ro'y bersa, Bank o'zining texnik tizimlarida yuzaga kelgan xatolar, nosozliklar, muammolarni bartaraf etish muddatlari va sanalarini mustaqil ravishda belgilash huquqini o'zida saqlab qoladi.
- 7.4. Qoidalarning shartlarini uchinchi shaxslarning qasddan va/yoki qasddan bo'lmagan xatti-harakatlari natijasida Bank tomonidan amalga oshirish imkoni bo'lmagan taqdirda, Bank javobgar bo'lmaydi.
- 7.5. Ushbu Qoidalar bilan tartibga solinmagan barcha boshqa holatlarga nisbatan Bankning Bosh shartlari hamda Bank va Bank Mijoz o'rtasida tuzilgan boshqa shartnomalar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi qo'llaniladi.

## **8. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI**

- 8.1. Mazkur Qoidalardan kelib chiqadigan yoki ular bilan bog'liq bo'lgan barcha nizoli masalalar maslahatlar va muzokaralar yo'li bilan do'stona tartibda hal etiladi.
- 8.2. Agar Tomonlar 8.1-bandga muvofiq nizolar va kelishmovchiliklarni hal qilmagan bo'lsa, nizolar Bank ro'yxatdan o'tgan joyiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq hal qilinishi kerak.

## **9. MIJOZLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

- 9.1. Mijoz quyidagi huquqlarga ega:
  - Bank hujjatlari bilan belgilangan hajmda va tartibda Dastur haqida ma'lumot olish;
  - ushbu Qoidalarga muvofiq mukofot olish.
- 9.2 Mijoz Dasturning ushbu Qoidalari bilan tanishishi shart. Bank Mijoz tomonidan Dasturda ishtirok etishni qabul qilish orqali avtomat tarzda Bank mijozining ushbu Qoidalar bilan tanishib chiqishini va to'liq roziligini nazarda tutadi.

## **10. BANKNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

- 10.1. Bank ushbu Qoidalarga muvofiq Dasturni o'tkazishi, shuningdek, sovrinlarni taqdim etish va topshirish majburiyatlarini bajarishi shart.
- 10.2. Dastur davomida Bank tomonidan Dastur bekor qilinishi mumkin emas.
- 10.3. Dastur ishtirokchilarini identifikatsiyalash maqsadida Bank ishtirokchilarning shaxsiy ma'lumotlarini so'rovnomalar orqali to'plash yoki amaldagi qonunchilik normalari doirasida Dasturni amalga oshirish uchun boshqa ma'lumot va hujjatlarni to'plash huquqiga ega.
- 10.4. Bank Dastur haqida qo'shimcha ma'lumotlarni Internet veb-saytda (<https://tbcbank.uz/>), shuningdek, Bank ofislarida e'lon qilish huquqini o'zida saqlab qoladi.
- 10.5. Bank xavflar va suiiste'mol qilish bilan bog'liq tekshiruvlarni amalga oshirganidan so'ng, Mijoz sovringa ega bo'lishni talab qilishi mumkin. Shu bilan birga, agar Bank bankning mijoz qonunga xilof, shubhali va/yoki firibgarlik xatti-harakatlarini amalga oshirayotgan deb hisoblasa, Bank ushbu qoidalar shartlarini bajarishda Mijozga rad javobini berish huquqini o'zida saqlab qoladi.



- 10.6. Shuningdek, agar Bank ongli ravishda qabul qilgan xulosasiga ko'ra Mijozning xatti-harakatlari mazkur Qoidalarga va Shartlarga zid kelayotgan deb hisoblasa va/yoki Mijoz Dastur shartlaridan noqonuniy foydalanayotgan yoki biron-bir tarzda suiiste'mol qilayotgan deb hisoblasa, har bir holatda, Bank (a) istalgan Yulduzlarni bekor qilishi; (b) Mijozga Dasturda ishtirok etishni yoki sovringa da'vo qilishni taqiqlashi; (c) Mijozning keyinchalik o'tkaziladigan aksiyalarda va o'yinlarda ishtirokini bloklashi; va/yoki
- (d) Mijozning hisobga olish qaydini to'xtatib qo'yishi mumkin. Bunga quyidagilar kiradi, lekin ular bilan cheklanmaydi:
- (i) bir nechta hisobga olish qaydlarni yaratish;
  - (ii) ro'yxatdan o'tish vaqtida yolg'on ma'lumotlar taqdim etish;
  - (iii) ijtimoiy tarmoqlarda, veb-saytlarda, qidiruv tizimlarida yoki ommaviy ma'lumot tarqatishning har qanday shakli orqali istalgan kodlarni ommaviy ravishda taqdim etish;
  - (iv) hisobga olish qaydining haqiqiy egasi nomidan harakat qiluvchi uchinchi shaxslarga foydalanish huquqini berish.

## **11. YAKUNIY SHARTLAR**

- 11.1. Ushbu Qoidalar 1-Ilovada ko'rsatilgan muddatgacha amal qiladi va kuchga kiradi.



**“TBC Bank” ATB “TBC Stars” dasturining  
qoida va shartlariga 1-Ilova**

1. Dastur amal qilish muddati: 2026 yil 25 apreldan 2026 yilning 25 iyulgacha.
2. Missiyalar ro‘yxati va ularni bajarganlik uchun beriladigan yulduzlar soni quyidagi jadvalda TBC UZ ilovasining TBC Stars bo‘limida keltirilgan.
3. Jismoniy sovrinlar va joriy vaucherlar jadvali hamda ularning yulduzlar qiymati TBC UZ ilovasining TBC Stars bo‘limida keltirilgan .